



Nozima AGZAMOVA^a

^aDoctoral Student

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

A.Qodiriy Str. 11, Tashkent, 100011, Uzbekistan

E-mail: agzamovanozima486@gmail.com

XIII ASR YEVROPA SAYYOHLARINING ASARLARIDA ILK XRISTIAN JAMOALARI TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIII–XV asrlarda yashab o'tgan mashhur G'arb sayyohlari – Ioann de Plano Karpini, Giyom de Rubruk va Marko Poloning sayohatlari tarixiy, madaniy va dinshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Shuningdek, o'rta asrlarda Osiyo qit'asidagi ijtimoiy-siyosiy manzara hamda ilk xristian jamoalari, xususan, nestorianlik yo'nalishining tarqalish geografiyasini yoritilgan. Mo'g'ullar imperiyasi davridagi diplomatik missiyalar hamda savdo aloqalari natijasida vujudga kelgan sayohatnoma janridagi asarlar G'arb dunyosining Sharq haqidagi ilk tasavvurlarini shakllantirishda poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Maqolada Karpini va Rubrukning mo'g'ul xonlari huzuriga qilgan diplomatik safarlari hamda Marko Poloning savdo maqsadidagi sayohatlari chog'ida guvoh bo'lgan diniy marosimlari, etnik xilma-xillik va madaniyatlararo muloqot jarayonlari tahlil qilinadi. Muallif mazkur sayohatnomalarni nafaqat geografik ma'lumotlar manbai, balki Markaziy va Sharqiy Osiyodagi xristian jamoalari tarixini o'rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi manba sifatida e'tirof etadi. Xulosa qismida ushbu manbalarning zamonaviy dinshunoslik va tarixshunoslik fanlari uchun dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ilk xristian jamoalari, nestorianlar, yakobitlar, saratsinlar, manuskript, «Million».

ANALYSIS OF MATERIALS ON HISTORY OF EARLY CHRISTIAN COMMUNITIES IN THE WORKS OF 13TH CENTURY EUROPEAN TRAVELERS

Abstract. This article explores the travelogues of prominent 13th–15th-century Western travelers, including John of Plano Carpini, William of Rubruck, and Marco Polo, from historical, cultural, and religious perspectives. The primary focus is to illustrate the socio-political landscape of Medieval Asia and the geographical expansion of early Christian communities, particularly the Nestorian sect. Created through diplomatic missions and trade expeditions during the Mongol Empire, these works served as the cornerstone for the Western world's initial perceptions of the East.

The paper analyzes the diplomatic missions of Carpini and Rubruck to the Mongol Khans, alongside Marco Polo's commercial journeys, highlighting their observations on religious rituals, ethnic diversity, and intercultural dialogue. The author characterizes these travel narratives not merely as geographical records but as indispensable primary sources for studying the history of Christian communities in Central and Eastern Asia. The study emphasizes the scientific value of these accounts in identifying the reach of Christianity across the continent. Ultimately, the article justifies the continued relevance of these historical sources for contemporary religious studies and historiography.

Keywords: Early christian communities, nestorians, jacobites, saracens, manuscript, «the Million».

KIRISH

O'rta asrlar sayyohlari keng geografik hududlarga qilgan sayohatlarining tarixiy, madaniy va diniy ahamiyati bilan tanilgan. Ayniqsa, XIII-XIV asrlarda G'arb va Sharq o'rtasidagi muloqotning faollashishi nafaqat savdo aloqalarini, balki sivilizatsiyalararo diniy-ma'rifiy almashinuvni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Ular o'z asarlarida o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tuzilmalari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar.

Ushbu davr manbalarining o'ziga xosligi shundaki, ular Mo'g'ullar imperiyasi yuksalishi fonida Yevropa xristian dunyosining «noma'lum Sharq» bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga keldi. Sayyohlar geografik hududlarni o'rganish bilan cheklanmay, balki markaziy Osiyo va Uzoq Sharqdagi diniy e'tiqodlarni, xususan, islom, buddizm va xristianlikning nestorianlik oqimi kabi diniy jamoalarning o'zaro yashash tarzini sinchiklab o'rganganlar. Ularning yozganlari bugungi kunda tarix, geografiya, madaniyatshunoslik hamda dinshunoslik sohalarida, ayniqsa, konfessiyalararo munosabatlar tarixini yoritishda keng qo'llaniladi.

ASOSIY QISM

O'rta asr g'arb sayyohlari yevropalik kashfiyotchilar, savdogarlar, missionerlar va ziyoratchilardan iborat bo'lib, ular XIII–XV asrlarda Osiyo, Afrika va Yaqin Sharqqa sayohat qilib, o'z ko'rgan-kechirganlarini yozib qoldirishgan. Ularning asarlari G'arb dunyosining Sharq haqidagi ilk tasavvurlarini shakllantirishga katta hissa qo'shgan.

Ma'lumki, aynan XIII asrda Osiyoda Mo'g'ullar imperiyasi vujudga keladi. Mo'g'ullar G'arbiy Yevropani tark etganlaridan keyin ham ularning yangi bosqini ehtimolidan qo'rquv saqlanib qoladi. Rim papasi Innokentiy IV (1243-yilda vafot etgan Grigoriy IX o'rniga saylangan) mo'g'ullar Yevropaga yangi yurish tayyorlayotgan yoki tayyorlamayotganini aniqlashga qaror qiladi. Shu maqsadda u mo'g'ullar huzuriga rasmiy elchilarni yuborib, xonni xristianlikka da'vat qilish vazifasini yuklaydi. Bunday missiyaga fransiskanlar rohiblik ordenining asoschilaridan biri bo'lgan 64 yoshli Plano Karpini rahbarlik qiladi. Italyan monaxi bo'lgan Ioann de Plano Karpini Mo'g'ul imperiyasiga sayohat qilib, u haqida yozma ma'lumot qoldirgan ilk yevropalik hisoblanadi. 1246-yilning iyul oyida elchilar xonning yozgi qarorgohigacha yetib bordi. Bu qarorgoh Chingizxon tomonidan 1220-yilda yuqori O'rxon daryosining chap sohilida asos solingan Qoraqurum shahrining shimoli-g'arbiy

qismida joylashgan edi. Shu yerda Karpini va uning hamrohi to'rt oy davomida yashab, yangi Buyuk Xon – Guyukning taxtga o'tirish marosimida ishtirok etdi (Raduy, 2011:9).

Uch yildan so'ng Lyudovik IX topshirig'iga ko'ra xon huzuriga yana bir diplomatik missiya yuborildi. Bu safar uning tarkibiga boshqa rohiblik ordeni – minoritlar a'zolari kiritildi. Missiyada qirol saroyiga yaqin bo'lgan fransuz monaxi Gilyom de Rubruk hamda uning uch nafar hamrohi kremonalik rohib Bartolomeo, ruhoni Gilyom Gossel va tarjimon ishtirok etadi.

Rubruk va uning hamrohlari 1252-yilning oxirida sayohatga o'tlanib, 1253-yilning boshida Konstantinopolga yetib keladi. Shu yilning may oyida ular Qrimga suzib boradilar va Saldaya portida (hozirgi Sudak) tushib qolishadi. Bu shahar Qrim yarim orolining janubiy sohilidagi savdo markazi bo'lgan. Ular shimol tomonga yo'l olib, Perekop orqali Janubiy Rus dashtlaridan o'tib, Volga daryosiga – hozirgi Saratov yaqinidagi Uvek hududiga yetib kelishadi. Bu yerda ular mo'g'ul Satraq bilan, keyinroq esa Volga quyi oqimidagi Oltin O'rda xoni Botuxon bilan uchrashadilar. Botuxon ularga yo'l ko'rsatuvchilar berib, ularni Buyuk Xon Munke huzuriga yuboradi. 1253-yilning oxiridan 1254-yilning aprel oyiga qadar Rubruk xonning ko'chmanchi qarorgohida yashashga majbur bo'ladi. Shundan so'ng imperiya poytaxti – Qoraqurum shahriga yetib boradi. U o'sha davrda poytaxtda taxminan ikki oy yashab, uni tasvirlab bergan yagona g'arbiy Yevropa sayyohi hisoblanadi.

Plano Karpini, Rubrukning xon huzuriga yuborilgan missiyalari diplomatik va josuslik xarakteriga ega bo'lgan bo'lsa, Marko Poloning sayohati asosan savdo maqsadlarini ko'zlab amalga oshirilgan edi.

Marko Poloning amakisi va otasi taxminan 1263–1265 yoki 1264–1266 yillarda Xitoyda bo'lishgan va 1269-yilda Venetsiyaga qaytishgan. Keyinchalik ular yana bir ekspeditsiyani amalga oshirib, 1271-yilda 17 yoshli Markoni ham olib Xitoyga yo'l olganlar va bu safar 1275-yilda nihoyasiga yetgan.

Marko Polo – venetsiyalik savdogar bo'lib, Xubilayxon davrida Xitoyda yashab boylik orttirgan va taxminan yigirma besh yillik uzoq safardan so'ng 1295-yilda vatani Italiyaga qaytib kelgan. Keyinchalik Genuya qamoqxonasida o'z xotiralarini yozdirib, 1324-yil o'z shahrida hayotdan ko'z yumgan (Olshki L., 1960). Fransuz yozuvchisi Eduard Sharton (1807–1890) to'rt tomdan iborat «Qadimgi va zamonaviy sayyohlar» xrestomatiyasini tuzib, Marko Poloni Sharqni kashf etuvchi sifatida Gerodotga tenglashtiradi:

«Ungacha Osiyo markazi va shimoli xaritalarda noaniq qorongʻi, qitʻaning katta qismi oq boʻshliq edi» (Garkavets, 2017). Marko Poloning xizmatlarini buyuk fransuz olimi, ensiklopedist, sayyoh va yozuvchi Jyul Vern ham taʼkidlaydi.

Marko Polo 1271–1295-yillar oraligʻida otasi Nikolo va amakisi Maffeo bilan birga Osiyo boʻylab safar qilgan. Ular dengiz orqali Kichik Osiyoning janubi-sharqiy sohillariga yetib borib, u yerdan quruqlik orqali Arman togʻlari, Mesopotamiya, Eron togʻlari, Pomir va Qashgʻar bosib oʻtib, Xitoyga yetib boradilar (Chekalov, 2004–2017).

Marko Polodan keyin XIV asrning birinchi yarmida missionerlar va savdogarlar tomonidan Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyo boʻyicha yangi geografik maʼlumotlar toʻplanadi. Ular venetsiyalik sayyohning «Dunyoning xilma-xilligi kitobi»ga qoʻshimcha kiritadilar. Ushbu sayohatchilarga Jovanni Montekorvino, Jurden de Severak, Odoriko Pordenone, Marinolli va Gans Shiltberger (Hans Schiltberger)ni kiritish mumkin (Radyul, 2011:11).

Marko Polodan keyingi birinchi sayohat Katolik cherkovi arbobi Jovanni Montekorvinoning (1292–1328) missiyasi boʻldi. Bu missiya Katolik cherkovining Sharqqa kirib borish rejalari bilan bogʻliq edi. Bu ishga Papa Nikolay IV katta ahamiyat bergan. 1290-yilda Papa Montekorvinoga Hindistonga joʻnashni buyuradi. U Hindistonda 13 oy, asosan sharqiy (Koromandel) sohilida, avliyo Foma izdoshlari boʻlgan xristianlar jamoasida yashaydi.

1318-yilda yangi yepiskoplar guruhi tarkibida missioner Jurden de Severak ham Sharqqa yoʻl oladi va Sharqiy Osiyo geografiasini oʻrganishga muhim hissa qoʻshadi. U 1318-yilda Fransiyaning Avinyon shahridan yoʻlga chiqqan (1305–1379 yillarda Papa taxti shu yerda boʻlgan). Jurden hamda uning hamrohlari Kichik Osiyo, Arman togʻlarini kesib oʻtib, 1320-yilda Hoʻrmuz portiga yetib kelishgan (Eronning Tabriz shahri orqali). U yerdan Hindistonga oʻtib, taxminan sakkiz yil davomida Hindistonning barcha gʻarbiy sohillarini aylanib chiqqan, Kuilonga va Koromandel sohiliga borgan va u yerda nestorianlar bilan aloqa oʻrnatishga harakat qilgan. Yevropaga qaytgach, Papa Ioann XXII topshirigʻiga binoan «Moʻjizalar tasviri» nomli hisobot yozishga kirishib, uni 1330-yilning may oyida yakunlagan.

Jurdenning zamondoshi boʻlgan fransiskanlik rohib Odoriko Pordenone 1316–1330-yillarda Sharqqa sayohat qilgan. U 1318-yilning aprel oyida 22 yoshida missioner sifatida Osiyo sayohatiga chiqib, uzoq muddat davomida Xitoyda Jovanni Montekorvino bilan yashagan. Xitoydan qaytishda u yevropaliklar

orasida birinchi boʻlib Tibetga borgan va uzoq vaqt Lxasada, Dalay-Lama qarorgohida yashagan. 1330-yilda Yevropaga bemor holda qaytib, Papaning koʻrsatmasi bilan oʻz safari haqidagi hisobotni Padua shahridagi Avliyo Antoniy monastiri rohibi Gilelmo Salanega yozdirgan, biroq uni tugatishga ulgurmay, 1331-yil 14-yanvarda vafot etgan.

1338–1353-yillarda italiyalik Jovanni Marinolining sayohati XIV asrdagi Gʻarbiy Yevropa missiонерlik va savdo faoliyatining Sharqdagi eng soʻnggi safari boʻladi. 1338-yilda u Papa Benedikt XII tomonidan 50 kishilik missiya bilan Xitoyga yuboriladi. Ular Konstantinopoldan chiqib, Kafa (Feodosiya), Tana (Azov), Astraxan, Armalik, Jungʻoriya orqali Xitoyga yetib bordilar. Marinollining sayohati Katolik cherkovining Sharqdagi oxirgi diplomatik harakati boʻldi. Chunki XIV asrning soʻnggi choragida Yevropa bilan Xitoy oʻrtasidagi aloqalar tizimi moʻgʻul uluslarining parokandalashuvi va Eronda feodallar oʻrtasidagi ichki urushlar sababli izdan chiqqan edi.

MUHOKAMA

Ioann de Plano Karpini moʻgʻullarning urf-odatlarini, dini va siyosiy tuzumini sinchiklab oʻrganib chiqadi. U oʻzining barcha taassurotlari va kuzatishlarini «Moʻgʻullar tarixi» asarida bayon qiladi. Karpini «Moʻgʻullar tarixi» yoki «Biz tatarlar deb ataydigan moʻgʻullar tarixi» (Historia Mongalorum quos nos Tartaros appellamus) asarida xristianlar haqida qisqacha toʻxtalib, ularning moʻgʻullar orasida mavjudligini qayd etadi: «Ular, shuningdek, Oʻrmas deb nomlanuvchi shaharga qarshi yurish qildilar. Bu shahar juda gavjum edi, chunki u yerda juda koʻp xristianlar, yaʼni hazarlar, ruslar, alanlar va boshqalar, shuningdek, sarrasinlar bor edi. Shahardagi hokimiyat sarrasinlarga tegishli edi» (Karpini, 1957:47). Bu parchada Oʻrmas¹ shahridagi xristian aholisining sezilarli darajada mavjudligini koʻrsatadi. «Hazarlar, ruslar, alanlar va boshqalar» iborasi esa xristian jamoasining koʻp millatli boʻlganidan dalolat beradi.

Gilyom de Rubruk XIII asrda Oʻrta Osiyo va Moʻgʻullar imperiyasi sarhadlariga qilgan sayohati haqida oʻzining «Sharq mamlakatlariga sayohat» asarida hikoya qiladi. Muallif uchratgan nestorianlarning moʻgʻullar orasida taʼlimotlarini yoymaslik hamda diniy marosimlarini mahalliy urf-odatlar bilan qorishtirib yuborish kabi eʼtiqodidagi yuzakilikni tanqid qilib oʻtadi.

¹ Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazmning poytaxti hisoblangan.

Marko Poloning 1276-1291-yillar oralig'ida Osiyo va Afrikaga sayohat tavsifi «Dunyo xilma-xilligi kitobi» (Livres des merveilles du monde) asarida eski fransuz tilida pizalik Rustikello (Rustichello da Pisa) ismli yozuvchi tomonidan yozib qoldirilgan.

Kitobning nomlanishi bo'yicha ayrim qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lib, Angliyada bu kitobni «Marko Polo sayohatlari» («The travels of Marco Polo»), Italiyada «Million» («Il Milione»²) deb atashadi. Ammo ushbu asar Marko Polo sayohatlarining hikoyasi emas, balki «Dunyoning tavsifi va uning g'aroyibotlari» nomli bo'lib, ilmiy geografiyaning ilk namunalari hisoblanadi (Marco Polo, 1938:40).

Asarning jami 150 nusxasi mavjud bo'lib (Mund S., 2004), ulardan 3 tasi qadimiy hisoblanadi:

1. Franko-italyancha matn – Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanadi (MS. français 1116) va «F manuskripti»³ sifatida mashhur.

2. Italyancha versiya – J.B.Ramuzio tomonidan yozilgan va 1559-yilda ilk bor nashr etilgan, «R manuskripti» deb ataladi.

3. Lotincha matn – Toledodagi sobor kutubxonasida saqlanadi va bu yerda «Z manuskripti» deb yuritiladi⁴.

Sayohatnoma to'rt qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Marko Polo Xitoyga borish yo'lida tashrif buyurgan Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo hududlari tasvirlangan. Ikkinchi qismda Xitoy va Xubilayxon saroyi tasvirlangan. Uchinchi qismda dengiz bo'yi mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Hindiston, Shri-Lanka, Janubi-sharqiy Osiyo va Afrikaning sharqiy sohili haqida so'z boradi. To'rtinchi qismda esa mo'g'ullar va ularning shimoliy qo'shnilari o'rtasidagi ba'zi urushlar tasvirlangan.

Kitob yozilganidan ko'p o'tmay, u venetsiya va lotin tiliga, keyinchalik lotin versiyasidan yana fransuz tiliga tarjima qilingan. Tarjima va ko'chirish jarayonida kitob o'zgargan, ba'zi matnlar qo'shilgan yoki olib tashlangan. Shuning uchun saqlanib qolgan eng qadimiy manuskript «F manuskripti» hisoblanadi (Miniyev, 1902).

Kitobning ilk rus tiliga ilmiy tarjimasi 1880-yilda professor Ivan Pavlovich Minayev tomonidan amalga oshirilgan (Miniyev, 1902:355).

² Marko Polo asarida doimo Xubilayxonning shon-shukhi, uning yillik daromadi o'n milliondan o'n besh milliongacha tilloda baholanishi va o'sha mamlakatlarning boyliklari haqida gapiradi. Buning barchasini u «millionlar» degan so'zni takror-takror ishlatib so'zlab berar edi. Shu bois unga «messa Marko Million» degan laqab berilgan.

³ Qadimiy yoki o'rta asr qo'lyozma asari.

⁴ Qadimiy yoki o'rta asr qo'lyozma asari.

Marko Poloning sayohatlariga oid kitobning o'zbek tiliga tarjimasi «Marko Poloning g'aroyib sarguzashtlari» nomi bilan ataladi. Ushbu nashr Marko Poloning asl hikoyalari asosida tayyorlangan bo'lib, Villi Maynk tomonidan «O'zbekiston NMIU» nashriyoti tomonidan chop etilgan (Maynk Villi, 1994).

Marko Poloning sayohatidagi diniy mazmundagi voqealar kitobning ilk qismidanoq yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, I.P.Minayev tarjimasidagi «Marko Polo sayohatlari» kitobida Nikkolo va Maffeo Polo Iyerusalimga borib, Quddus qabri ustida yonayotgan chiroqdan muqaddas yog' olishlari hamda Papaning duosini olishlari haqidagi voqea tasvirlangan. Bu qissa ularning Xitoydan qaytishi va xonning iltimosiga ko'ra yangi elchilik safariga tayyorgarlik ko'rishlari haqidagi bobda bayon qilingan (Miniyev, 1902).

Marko Polo Osiyo bo'ylab sayohatlari davomida qit'aning bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha tarqalgan turli xil xristian jamoalari bilan uchrashgan. Uning kitobi o'rta asrlarda Osiyoda xristianlikning tarqalishiga oid eng to'liq va aniq ma'lumot manbai hisoblanadi. Bu tarqalish aynan Polo oilasining Sharqqa qilgan safarlari davrida eng avjida bo'lgan. Unda nafaqat qadimgi Osiyo an'analari mansub sektalar, balki Yevropa cherkovlari ham qamrab olingan (Olshki L., 1960).

Marko Polo birinchi navbatda nestorianlar – Osiyodagi yagona xristian yo'nalishi haqida yozib qoldirgan bo'lib, ularning o'ziga xos cherkov iyerarxiyasi mavjudligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ular Mo'g'ullar imperiyasi tomonidan tan olingan va himoya ostidagi cherkov maqomiga ega bo'lgan. Masalan, poytaxti Tiflis bo'lgan Gruziyada tog'lar orasidagi qasrlar va qishloqlarda asosan arman yo'nalishidagi xristianlar yashagan, ular orasida kam sonli saratsinlar⁵ va yahudiylar ham bo'lgan.

Marko Polo Armanistonning janubida joylashgan Mo'sul podshohligini ta'riflaganida, u yerda nestorianlar va yakobitlar yashashini ta'kidlaydi. Ularning «Masih dini»ga e'tiqod qilishini aytgan holda, Rim cherkovi belgilagan tarzda emasligini, ya'ni ular aqidaga oid ba'zi masalalarda xato qilishi haqida yozadi. Biroq bu xatolarning aniq nima ekanini u ko'rsatib o'tmaydi.

Polo nestorianlarni Rim katolik cherkovi vakillariga o'xshatadi, chunki ularda ham patriarxlik mavjud. Patriarx Bag'doddagi qarorgohidan arxiyepiskoplar, yepiskoplar, abbatlar va boshqa cherkov lavozimlarini tayinlaydi va ularni Hindiston hamda Xitoyga yuborib turadi.

⁵ O'rta asrlarda arablarni va barcha musulmonlarni saratsinlar deb atashgan.

Marko Polo yashagan davrda nestorianlar cherkovi o'z tarixi davomidagi eng yuqori nuqtaga yetgan edi. Bu holat unga bog'langan Mo'g'ullar sulolasi himoyasi ostida amalga oshadi. U Eronni ikki marta, turli yo'nalishlarda, 1272-yilda kesib o'tgan va uchinchi marta 1294-yilda vataniga qaytib kelayotganida o'tgan. Bu safarlar Elxoniyalar sulolasi hukmdorlari Abaka (1265–1282) va Kayxotuxon davriga to'g'ri keladi. Ayni shu vaqtda, Yaqin Sharq bo'ylab turli millatlarga mansub xristian cherkovlari o'rtasida nisbatan tinchlik hukm surgan va bu holat yangi hamda kuchli sulola faol himoyasi bilan ta'minlangan edi.

XULOSA

XIII asr Yevropa sayyohlarining asarlarida ilk xristian jamoalari tarixiga oid ma'lumotlar muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, Ioann de Plano Karpini, Gilyom de Rubruk va Marko Poloning sayohatnomalari o'sha davrdagi diniy, ijtimoiy va siyosiy holatlarni, shuningdek, xristian jamoalarining geografik joylashuvi va ko'lami haqida aniq ma'lumotlar beradi hamda o'rta asrlar Osiyosidagi ilk xristian jamoalari tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali diniy bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot va tarixiy jarayonlar tahlil qilinadi.

Ushbu tarixiy manbalar orqali o'rta asrlar Osiyosida xristianlikning tarqalish geografiyasi, etnik va diniy xilma-xillik, shuningdek, G'arb va Sharq o'rtasidagi madaniy-diniy aloqalar ancha chuqur o'rganiladi. Shu bilan birga, sayyohlarning diniy qarashlari va ularning tahlillari zamonaviy dinshunoslik va tarixshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova, M., & Ernazarov, O. (2023). Millatlararo va diniy bag'rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
2. Muratov, D., Alimova, M., & Karimov, J. (2019). Dinshunoslik (Darslik). Navro'z.
3. Alimova, M., & Ernazarov, O. (2022). Dinshunoslikning dolzarb muammolari (O'quv qo'llanma). Adast poligraf.
4. Nizomiddinov, N. (2023). Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy va Markaziy Osiyoda xristianlik tarixi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
5. Ibragimov, E. F. (2010). O'zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag'rikenglik an'analari shakllanishida tutgan o'rni (Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.

6. Maynk, V. (1994). Marko Poloning ajoyib va taroyib sarguzashtlari (M. Mirzoidov & E. Nosirov, Tarj.). Sharq NMK.
7. Muqaddas Kitob. (2020). Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti.
8. Sannikov, S. B. (2002). Dvadsat vekov xristianstva. Pervoye tisyacheletie (Vol. 1). Bogomisliye.
9. Radyul, G. V. (2011). Ekspeditsii yevropeytsev na Vostok v XIII–XIV vv. A. S. Gorny (Tahr.), Rekha minushchini: zb. nauk. art. (283-bet). GrDU imya Ya. Kupali.
10. Garkavets, A. N. (2017). Marko Polo po prozvizhchu Million i ego «Kniga o raznoobrazii mira». Zolotoordinskoye obozreniye, 5(3), 522–565.
11. Chekalov, K. A. (2004–2017). Polo. Yu. S. Osipov (Tahr.), Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya (35 jildida). Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya. (Arxivlangan: 3-yanvar, 2023).
12. Plano Karpini, J., & Rubruk, G. (1957). Istoriya Mongalov. Puteshestviye v Vostochniye strani (A. I. Malein, Tarj.). Gosudarstvennoye izdatelstvo geograficheskoy literatury.
13. Minayev, I. P. (1902). Puteshestviye Marko Polo: Per. starofr. teksta (V. V. Bartold, Tahr.). Tipografiya M. M. Stasyulevicha.
14. Polo, M. (1938). The Description of the World (A. C. Moule & P. Pelliot, Eds.; Vol. 1). G. Routledge and Sons Limited.
15. Mund, S. (2004). Constitution et diffusion d'un savoir occidental sur le monde «russe» au Moyen Age (fin Xe-milieu XVe siecle). Le Moyen Age, 110(3).
16. Critchley, J. S. (1993). Marco Polo's Book (New edition). Variorum. ISBN 978-0-86078-361-9.
17. Olshki, L. (1960). Marco Polo's Asia. University of California Press.
18. Wikipedia. (n.d.). Kniga chudes sveta. https://ru.wikipedia.org/wiki/Kniga_chudes_sveta
19. Discover History. (n.d.). Chapter 016. http://discover-history.com/chapter_016.htm
20. MGU Tarix fakulteti. (n.d.). Djovanni del Plano Karpini. Istoriya Mongalov. <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/carpini.htm>

REFERENCES

1. Alimova, M., & Ernazarov, O. (2023). Millatlararo va diniy bag'rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili. International Islamic Academy of Uzbekistan.
2. Muratov, D., Alimova, M., & Karimov, J. (2019). Dinshunoslik (Textbook). Navruz Publishing.
3. Alimova, M., & Ernazarov, O. (2022). Dinshunoslikning dolzarb muammolari (Study guide). Adast Poligraf.
4. Nizomiddinov, N. (2023). Janubiy, Janubi-Sharqiy, Sharqiy va Markaziy Osiyoda xristianlik tarixi. International Islamic Academy of Uzbekistan Publishing and Printing Association.

5. Ibragimov, E. F. (2010). O'zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag'rikenglik an'analari shakllanishida tutgan o'rni (Doctoral dissertation abstract). Tashkent.
6. Maynk, V. (1994). Marko Poloning ajoyib va taroyib sarguzashtlari (M. Mirzoidov & E. Nosirov, Trans.). Sharq NMK.
7. Muqaddas Kitob. (2020). Institute for Bible Translation.
8. Sannikov, S. B. (2002). Dvadtsat vekov khristianstva. Pervoye tysyacheletiy (Vol. 1). Bogomyslie Publishing House.
9. Radyul, G. V. (2011). Ekspeditsii yevropeytsev na Vostok v XIII–XIV vv. In A. S. Gorny (Ed.), *Rekha minushchyni: Collection of scientific articles* (p. 283). Grodno State University.
10. Garkavets, A. N. (2017). Marko Polo po prozvishchu Million i ego «Kniga o raznoobrazii mira». *Golden Horde Review*, 5(3), 522–565.
11. Chekalov, K. A. (2004–2017). Polo. In Y. S. Osipov (Ed.), *Great Russian Encyclopedia* (35 vols.). Great Russian Encyclopedia. (Archived Jan 3, 2023).
12. Plano Carpini, G., & Rubruquis, G. (1957). *Istoriya Mongalov. Puteshestviye v Vostochniye strany* (A. I. Malein, Trans.). State Publishing House of Geographical Literature.
13. Minayev, I. P. (1902). *Puteshestviye Marko Polo: Translation of the Old French text* (V. V. Bartold, Ed.). M. M. Stasyulevich Printing House.
14. Polo, M. (1938). *The Description of the World* (A. C. Moule & P. Pelliot, Eds.; Vol. 1). G. Routledge and Sons Limited.
15. Mund, S. (2004). *Constitution et diffusion d'un savoir occidental sur le monde «russe» au Moyen Age (fin Xe-milieu XVe siecle)*. *Le Moyen Age*, 110(3).
16. Critchley, J. S. (1993). *Marco Polo's Book* (New edition). Variorum. ISBN 978-0-86078-361-9.
17. Olshki, L. (1960). *Marco Polo's Asia*. University of California Press.
18. Wikipedia. (n.d.). *Kniga chudes sveta* (The Book of Marvels of the World). https://ru.wikipedia.org/wiki/Kniga_chudes_sвета
19. Discover History. (n.d.). Chapter 016. http://discover-history.com/chapter_016.htm
20. MSU Faculty of History. (n.d.). *Giovanni del Plano Carpini. Istoriya Mongalov*. <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/carpini.htm>

